



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



MOTURIDIYLIK: MU'TADILLIK VA VASATIYLIK

Mirzamiddinov Asliddin.

Toshkent islom instituti, Qur'on ilmlari kafedrasasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada moturidiylik aqidaviy maktabining asosiy tamoyillari – mu'tadillik va vasatiylik (o'rtachalik) qadriyatları yoritilgan. Moturidiylik ta'limoti islom tafakkuridagi muvozanat, bag'rikenglik, aql va naql uyg'unligi tamoyillariga asoslanadi. Ushbu maqolada moturidiylikning paydo bo'lishi, asoschilarini, asosiy g'oyalari hamda hozirgi zamona uchun dolzarb jihatlari ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: moturidiylik, mu'tadillik, vasatiylik, kalom ilmi, Abu Mansur Moturudiy, aqidaviy tafakkur, bag'rikenglik, aql va naql, diniy mo'tadillik.

Kirish:

Islom tarixida paydo bo'lgan turli aqidaviy maktablar orasida moturidiylik maktabi o'zining mu'tadilligi, fikriy barqarorligi va ilmiy asoslanganligi bilan ajralib turadi. Bu maktab asoschisi Abu Mansur Moturudiy (IX–X asrlar) o'zining aqidaviy qarashlarida aql va vahiy uyg'unligiga, bag'rikenglik va adolatga alohida e'tibor qaratgan. Moturidiylik o'rta yo'lni tanlagan bo'lib, hozirgi diniy ekstremizm va mutaassiblik tahdidlariga qarshi samarali mafkuraviy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Hozirgi kunda musulmonlar orasida e'tiqod masalalarida moturidiylik eng keng tarqalgan yo'nalish hisoblanadi. Qoida tariqasida, moturidiylarning aqidasi fiqh masalalarida hanafiy mazhabi tarafdarlariga xosdir. Maturidizm Turkiya, Hindiston, Pokiston, Bangladesh, Afg'oniston, O'rta Osiyo, Bolqon yarim oroli, Xitoyning shimoli-g'arbiy qismi, Levan, (Suriya+Livan), Kavkaz, Tatariston va Boshqirdistonda keng tarqalgan. Bu falsafiy va ilohiyot maktabining asoschisi, hijriy yil bo'yicha III-IV asrlarda (Miladi bo'yicha IX-X asrlarda) yashagan Abu Mansur al-Moturidiy hozirgi O'zbekiston hududida, Samarqand shahri yaqinidagi Maturi shahrida tug'ilgan va ta'limni Samarqandda olgan. Moturidiy Samarqanddagi al-Ayoziy madrasasida o'qidi, mahalliy hanafiy faqihlardan ta'lim oldi, Abu Bakr Ahmad al-Juzjoniy, Abu Nasr Ahmad ibn al-Husayn al-Iyodiy, Nusayr ibn Yahyo al-Balxiy, Muhammad ibn Muqtol ar-Roziy unga ustozlik qilishdi. Keyin o'zi fiqh va kalom ilmlaridan dars berdi. Abu Ahmad al-Iyodiy, Abul Hasan Ali ibn Sayyid ar-Rustug'faniy, Abu Bakr as-Samarqandiy, Makhul an-Nasafiy, Abul Mu'in an-Nasafiy, Abulyusr al-Pazdaviy kabi shogirdlar yetishtirdi. Vasiyatiga ko'ra, Samarqanddagi Chokardiza qabristoniga dafn etildi.

Asosiy qism:

Moturidiylikning shakllanishi va tarixiy asoslari:

Moturidiylik Samarqand atrofida shakllangan bo'lib, sunniy aqidaning asosiy yo'nalishlaridan biri sanaladi. Bu maktab Ash'ariylar bilan bir qatorda ahlus-sunna val-jamoa aqidasining poydevorini tashkil etadi. Moturidiy aqidasi Abu Hanifa ta'limotlariga asoslanib, aqlni diniy bilish vositasi sifatida yuqori baholaydi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Moturidiyning assosiy asarlari „Kitob at-tavhid“ („Yakkaxudolik haqidagi kitob“), „Ta’vilat ahl as-sunna“dir („Sunniylik an’analari sharhi“). „Kitob at-Tavhid“ bilish nazariyasi bayon qilingan musulmon ilohiyotshunosligining birinchi asari hisoblanadi. Kitobning kalom ilmi ta’rifi berilgan muqaddimasida bilimning 3 manbai: hissiy (sezgi) a’zolari vositasida, naql — rivoyatlar vositasida va aql-idrok vositasida axborotlar olish mumkinligi haqida gapiriladi. Moturidiy sof din doirasidan chiqmagan holda aql-idrokni ulug’laydi va mantiqan asoslangan bilimning ahamiyatini ta’kidlaydi. Kitobda o’sha davrdagi adashgan firqalar qarashlarining haqiqatdan yiroq ekanligi tahlil etilgan. Moturidiy „Din yo‘lidagi barcha adashuvlarning sababi — riyokor kimsalarga ko‘r-ko‘rona ergashishdadir“, deb ta’kidlagan edi. Abu Mansur al-Moturidiy asarlari mazmunida ilohiy zotni aql-idrok bilan bilish, Alloh taolo inson zimmasiga yuklagan farzni ado etishdan boshqa narsa emas, deb hisoblagan. Uning fikricha, agar Yaratuvchining mavjudligini aql bilan tushunish mumkin va unda odamlar Uning imonga oid maxsus amrlarini qabul qilishlari va ba’zi mutlaqo shaxsiy savollarning ma’nosи haqida ortiqcha so’ramasliklari kerak.

Mu’tadillik va vasatiylik tushunchalari:

Moturidiylar diniy masalalarda ifrat va tafritdan yiroq turib, o’rtachalik tamoyiliga amal qiladilar. Ular aqlni rad etmagan, ammo aqlni mutlaq ustunlikka ham qo‘ymagan; vahiy (naql) bilan birga ishlatgan. Bu yondashuv diniy bag‘rikenglik va sabr-bardosh muhitini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Moturidiylikning asosiy aqidaviy tamoyillari:

- Aql va naql uyg‘unligi
- Insonning ixtiyor va mas’uliyati
- Allohnинг adolati va rahmati
- Payg‘ambarlarning ismati
- Din va dunyo ishlarining muvozanati

Tahlil:

Moturidiylik maktabi asrlar davomida Markaziy Osiyo xalqlari ongida chuqur iz qoldirgan. Uning tamoyillari orqali musulmonlar o‘z e’tiqodini ilmlilik, ijtimoiy mas’uliyat va bag‘rikenglik asosida shakllantirib kelganlar. Zamonaviy diniy muhitda ayrim ekstremistik oqimlar yoshlar ongini zaharlayotgan bir paytda, moturidiylik ta’limotining dolzarbliyi yana-da ortib bormoqda. U nafaqat aqidaviy, balki mafkuraviy barqarorlikni ta’minalashga xizmat qilmoqda.

Moturidiy ilohiyotchi olim sifatida muhim aqidaviy masalalar — juz’iy ixtiyor, e’tiqod, oxirat hayoti kabilarni qamrab oluvchi risolalar bitdi. „Ma’xaz ash Shari’a“ („Shariat asoslari sarasi“), „Kitob al-usul“ („Diniy ta’limot asoslari kitobi“), „Kitob al-jadal“ („Dialektika haqidagi kitob“) kabi asarlari shular jumlasidandir. Moturidiy Abu Hanifa qarashlarini tushuntirib berib, uni rivojlantirdi. Abul Hasan al-Ash’ariy (873—935) ishlab chiqqan Islom aqidasi asoslarini takomillashtirib, uni sunniylik e’tiqodiga kirib qolgan noto‘g‘ri, g‘ayri sahih aqidalardan tozaladi. Moturidiy qarashlari o‘z davrida mintaqaning





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



madaniy va ilmiy ravnaqita sabab bo‘lgan. Chunki Moturidiy din asoslarini mantiqan tushuntirgan, tanlov huquqi va ijtimoiy hamjihatlikni qaror topdirish g‘oyalarini rivojlantirgan. Moturidiy jami 15 ga yaqin asar taklif etgan. Uning kalomga oid 7 ta va fiqhga oid 2 ta asari bo‘lib, ular saqlanib qolmagan. Moturidiyning bizgacha yetib kelgan asarlari qisman tadqiq qilingan. Uning Qur‘on tafsiriga bag‘ishlangan „Ta‘vilot al-Qur‘on“ asari va uning uzviy davomi hisoblanmish „Irshad al-mubtadiyin fiy tajvidi Kalami Robbil alamin“ („Qur‘on o‘qishga kirishganlar uchun qo‘llanma“) kitobi O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanadi. Imom Moturidiyning ma’nosi aniq bo‘lмаган oyatlarni izohlash uslubi faqih va muhaddislar (hadis olimlari) tamoyillariga zid bo‘lsa-da, zamon talablariga javob berar edi. Islom dini tarqalib borar ekan, qadimiy madaniyat va dirlarga tobora ko‘proq duchor bo‘la boshladi. Musulmon ulamolari mutashabbih oyatlarga izoh bermagan bo‘lsalar ham, haligacha barcha ilmiy talablarni chetlab o‘tib, o‘z ixtiyoriga ko‘ra diniy matnlarni tushuntirishga olingan, ma’nosi o‘z tushunishlaridan chetda qolgan soxta olimlar ham bor edi. Imom Moturidiy esa dinni mana shunday bid’at qarashlaridan asrash maqsadida mutashabbih oyatlarga o‘z tafsirlarini yozgan. Shu bilan birga, uning tushuntirishlari islom asoslariga zid emas edi. Sunniy aqida va kalomni tashkil etuvchi har ikki mazhab (moturidiy va ash‘ariy) ham eng avvalo Qur‘on va sunnatga, shundan keyingina aqlga tayangan. Ular aqida masalalarida fikr yuritishga o‘rin qoldirmagan faqih va muhaddislar bilan didaktik bilim imkoniyatlarini haddan tashqari oshirib yuborgan mo‘taziliylar o‘rtasida o‘rin egallagan oltin vositaga aylandilar. O‘zbekistonda Moturidiy merosini o‘rganishga faqat mustaqillikdan keyingina kirishildi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan 2000-yilda Moturidiy tavalludining 1130-yilligi O‘zbekistonda keng nishonlandi. O‘zbekiston prezident I. A. Karimov tashabbusi bilan Samarqandda alloma xotirasiga yodgorlik majmui bunyod etildi. Toshkent va Samarqandda Moturidiy ta’limoti va uning islom olamida tutgan mavqeiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy anjumanlar o‘tkazildi.

Fikr va mulohazalar:

Bugungi globallashuv sharoitida turli ekstremistik g‘oyalar va diniy murosasizlik kuchayib borayotgan bir paytda moturidiylikning mu’tadil yondashuviga ehtiyoj kuchli bo‘lmoqda. Afsuski, moturidiylikning mohiyati keng jamoatchilik, ayniqsa yoshlар orasida yetaricha tushuntirilmayapti. Shu sababli ushbu ta’limotni o‘rganish, targ‘ib qilish va amaliyotga joriy etish zarur. yorituvchi maqolalar, risolalar va tadqiqotlar chop etildi. Moturidiy merosini o‘rgangan xorijlik olimlar bilan samarali hamkorlik aloqalari o‘rnatildi. 2001-yilda Göttingen (Germaniya) universitetining professori Rudolf Ulrich qalamiga mansub „Al-Moturidiy va Samarqand sunniylik ilohiyoti“ kitobi o‘zbek tilida nashr etildi. 2002-yilda mazkur kitobning keng ommaga, jumladan, oliy o‘quv yurtlarining talabalari va o‘rta maktablarning yuqori sinf o‘quvchilariga mo‘ljallangan nashri amalga oshirildi. Endilikda xalqimiz Moturidiy merosi bilan o‘z ona tilida tanishish imkoniga ega bo‘ldi.

Xulosa:





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Xulosa qilib aytganda, Imom Moturidiy shunday savollar borki, ularning mohiyatini faqat aqlga tayanib bilib bo‘lmaydi, deb e’tirof etgan. Shu bois Moturidiy Qur’on va Sunnatga tayangan holda aql bilan amal qilishga chorlagan, unga ko‘ra ma’nosi noaniq bo‘lgan oyatni boshqa bir oyat bilan tafsir qilgan, ma’nosi yanada ravshanroq bo‘lgan uslubni qo‘llagan. Imom Moturidiy fikricha, agar aql diniy matnlarni tushunishga qodir bo‘lmasa, inson o‘zini ularning haqiqatiga ishonish bilan cheklashi kerak. Ma’nosi o‘zlariga tushunarsiz bo‘lgan diniy matnlarga nisbatan sahoba va tobiyin aynan shunday qilishgan.

Moturidiylik o‘z mohiyatiga ko‘ra ilmlilikka, aql-zakovatga, ijtimoiy barqarorlikka asoslangan mu’tadil aqidaviy maktabdir. Uning asosiy tamoyillari – vasatiylik va mu’tadillik – bugungi kunda jamiyatda diniy bag‘rikenglikni mustahkamlashda, yoshlarni ekstremistik oqimlardan himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi. Moturidiylikni chuqr o‘rganish va uni keng ommaga to‘g‘ri tanishtirish – hozirgi davrning dolzarb vazifalaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Zaynuddin al-Hanafi. (1999). Mukhtar al-Sihah. Beirut: al-Maktaba al-Asriyya.
2. Al-Mas’udi. (2005). Muruj az-Zahab. Beirut: alMaktaba al-Asriyya.
3. Ahmad bin Faris. (1979). Mu’jam Maqayis al-Lughah. Darul Fikr.
4. Muhammad Hasan Jabal. (2010). Al-Mu’jam allIshtiqaqi. Cairo: Maktaba al-Adab.
5. Abul Hasan al-Ash’ari. (1980). Maqalat al-Islamiyyin. Wiesbaden: Daru Faraniz.
6. Abul Hasan al-Ash’ari. (1950). Maqalat al-Islamiyyin. Cairo: Maktaba al-Nahda.
7. Abu Mansur al-Maturidi. (Year of pulication is unknown). Kitab al-Tawhid. Beirut: Daru Sadir.
8. Ibn Hajar al-Athqalani. (2002). Lisan al-Mizan. Darul Bashair

